

№ 2 (6)
2025



ÓZBEKSTAN MÁMLEKETLIK KONSERVATORIYASI
NÓKIS FILIALI

MUSIQA VA SAN'AT AXBOROTNOMASI / ВЕСТНИК МУЗЫКИ И ИСКУССТВА / BULLETIN OF MUSIC AND ART

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER XABARSHÍSI

ILIMY-METODIKALÍQ JURNAL





**ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ JOQARÍ BILIMLENDIRIW,
ILIM HÁM INNOVACIYALAR MINISTRIGI
ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ MÁDENIYAT MINISTRIGI
ÓZBEKSTAN MÁMLEKETLIK KONSERVATORIASÍ
NÓKIS FILIALÍ**

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER XABARSHÍSÍ
Ilimiy-metodikaliq jurnal

MUSIQA VA SAN'AT AXBOROTNOMASI
Ilmiy-uslubiy jurnal

ВЕСТНИК МУЗЫКИ И ИСКУССТВА
Научно-методический журнал

BULLETIN OF MUSIC AND ART
Scientific-methodical journal

№ 2(6)/2025

SHÓLKEMLESTIRIWSHI:

Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası Nókis filiali

Bas redaktor: – Allanbaev Rudakiy, *professor*

Juwaplı xatker: – Kamalova Difuza, *filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori, docent.*

REDKOLLEGIYA AGZALARI:

OZODBEK NAZARBEKOV – Ózbekstan Respublikası Mádeniyat ministri, professor;

AZIZBEK TURDIEV – Ózbekstan Respublikası Mektepge shekemgi hám mektep bilimlendiriw ministri orınbasarı, filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD);

KAMOLIDDIN URINBAYEV – Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası rektori, professor;

AMANULLA RIZAYEV – kórkem ónertanıw ilimleriniń kandidati, professor;

HIKMAT RAJABOV – professor;

ORAZALI TOSHMATOV – professor;

BAXT AZIMOV – pedagogika ilimleri kandidati, docent,

MUHABBAT TOLAXOJAEVA – kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, professor;

MARFUA XAMIDOVA - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, professor;

BOLTABOY SHODIYEV - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, docent;

OZODA TOSHMATOVA - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, professor;

SAYYORA ĞAFUROVA – professor;

OYDIN ABDULLAEVA – professor;

IRODA MIRTALIPOVA – kórkem ónertanıw ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD);

PARAXAT MAMUTOV – kórkem ónertanıw ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD);

QURBANBAY JARIMBETOV – filologiya ilimleriniń doktori, professor;

ALIMA BERDIMURATOVA – filosofiya ilimleriniń doktori, professor;

ZIYADA BEKBERGENOVA – filologiya ilimleriniń doktori (DSc), professor;

ARTÍQBAY EREJEPOV – pedagogika ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD), docent;

JANABAY MARZIYAEV – filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD), docent;

Jurnal qaraqalpaq, ózbek, rus hám ingliz tillerinde baspadan shıǵarıladı. Jurnal Ózbekstan Respublikası Prezidenti Administraciyası janındaǵı Málimleme hám ǵalaba kommunikaciýalar agentligi tárepinen mámleketlik dizimnen ótkerilgen. №047569 4-oktyabr, 2022-jıl.

Ózbekstan Respublikası Joqarı Attestaciya Komissiyasınıń 2024-jıl 30-iyuldaǵı 358-sanlı qararı tiykarında jurnal 17.00.00-Kórkem ónertanıw ilimleri jónelisi boyınsha dissertaciya nátiyjelerin baspadan shıǵarıw ushın arnalǵan jetekshi ilimiy jurnallar qatarına kiritilgen.

Redakciya mánzili: Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası Nókis filiali Sh.Abdirov 2-jay.

E-mail: ozdknf@edu.uz, UZDK_Nukus@exat. Tel: 551020540 Veb-sayt: <https://science.uzdknf.uz/>

ISSN-2181-4112

**XALQ MUSIQA IJODIYOTINI O'RGANISHGA PEDAGOGIK
YONDASHUV**

Djumaniyazov U.M.

O'zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filiali

Annotatsiya. Mazkur maqolada xalq musiqa ijodiyotini o'quvchilarga o'rgatishda qo'llaniladigan pedagogik yondashuvlarning ilmiy-nazariy asoslari, milliy musiqiy meros namunalarining ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati, uning o'quvchilarda ma'naviy barkamollik, estetik did va ijodiy tafakkurni rivojlantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, maqolada didaktik hamda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlarning samarali jihatlari yoritilgan. Xalq musiqa ijodiyotini o'rganishda uning tarbiyaviy imkoniyatlaridan keng foydalanish a'lohida ahamiyatga ega ekanligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: xalq musiqa ijodiyoti, pedagogik yondashuv, ma'naviy tarbiya, estetik did, milliy qadriyatlar, ma'naviy-mandaniy, odob-ahloq, folklor, ijodiy tafakkur, musiqa.

Аннотация. В этой статье освещаются научно-теоретические основы педагогических подходов, применяемых при обучении учащихся народному музыкальному творчеству, значение образцов национального музыкального наследия в учебно-воспитательном процессе, его значение в развитии духовного совершенства, эстетического вкуса и творческого мышления учащихся. В статье также рассматриваются эффективные аспекты дидактических, а также личностно-ориентированных подходов. Освещено, что в изучении народного музыкального творчества особое значение имеет широкое использование его воспитательных возможностей.

Ключевые слова: народное музыкальное творчество, педагогический подход, духовное воспитание, эстетический вкус, национальные ценности, духовно-нравственные, нравственные, фольклорные, творческое мышление, музыка.

Annotation. This article covers the scientific and theoretical foundations of pedagogical approaches used in teaching students of folk music creativity, the importance of samples of national musical heritage in the educational process, its importance in the development of spiritual perfection, aesthetic taste and creative thinking in students. The article also covers effective aspects of didactic as well as personality-oriented approaches. In the study of folk music creativity, it is

illuminated that the widespread use of its educational capabilities is of great importance.

Key words: folk music creativity, pedagogical approach, spiritual education, aesthetic taste, national values, spiritual-mandanian, etiquette, folklore, creative thinking, music.

Kirish. Xalqimizning musiqiy boyliklari juda ko‘p qirrali, sermazmun va rang-barang hisoblanadi. Ohangdor, ajoyib kuy-qo‘shiqlarimiz kishiga quvonch, xursandchilik bag‘ishlaydi, g‘amgin damlarni yengil qiladi. U insonni oliyjanob fazilatlari, his-tuyg‘ularini ohanglarda ifodalab beruvchi kuchga egadir. O‘zlikni anglash, avvalambor, tarixni bilishdan boshlanadi. Zotan, “tarix – xalq ma’naviyatining asosidir. O‘tmish tarixni bilmasdan turib, o‘zlikni anglab bo‘lmaydi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev o‘z nutqida: “Bugungi kunda musiqa san’ati navqiron avlodlarimizning yuksak ma’naviyat ruhida kamol topishiga boshqa san’at turlariga qaraganda ko‘proq va kuchliroq ta’sir etmoqda” deb yosh avlodlarni ma’naviy barkamol bo‘lib yetishishlarida musiqa san’atining o‘rni va ahamiyati haqida takidlab o‘tganlar. Shu bilan birga, yoshlarning madaniy saviyasini yuksaltirish, ularni milliy va umumbashariy madaniyatning eng yaxshi namunalari bahramand qilish, shu asosda ma’naviy yetuk, barkamol shaxslarni tarbiyalash, yosh iste’dod egalarining qobiliyati va salohiyatini ro‘yobga chiqarish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu kabi ishlarni amalga oshirish natijasida yoshlarning ma’naviy salohiyati, badiiy-estetik didi hamda keng dunyoqarashining tarkib topishiga zamin yaraladi. Ta’lim-tariya jarayonlarida o‘quvchi-yoshlarning ma’naviy dunyoqarashini rivojlantirishda xalq musiqa ijodiyotining tutgan o‘rni va ahamiyati beqiyosdir.

Asosiy qism. Xalqning ma’naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish O‘zbekistonda davlat va jamiyatning muhim vazifasidir. Mustaqillik bizga vatanimizning ko‘p yillik tarixini sinchiklab o‘rganish, tadqiqotlar olib borish kabi katta imkoniyatlarni taqdim etdi. Shu bilan birga, mahalliy musiqa uslublari, folklor, mumtoz musiqalar tarixini mufassal yoritib berish uchun nodir manbalar va qo‘lyozmalardan bemalol foydalanish mumkin bo‘lgan sharoitlar vujudga keldi.

Mamlakatimizda sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning o‘z ijodiy va intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish, yoshlarni zamon talablariga mos, har tomonlama teran fikrlaydigan yuqori salohiyatga ega bo‘lgan komil insonlar qilib voyaga etkazish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Xalq musiqa ijodiyoti asrlar davomida xalqimizning ruhiyati, orzu-umidlari, mehnat va turmush tarzini ifoda etgan muhim madaniy qatlam sifatida e'tirof etiladi. An'anaviy xalq og'zaki kasbiy musiqa ijodi an'analarning yuzaga kelishi, davrlar osha gullab yashnashi, badiiy tafakkur taraqqiyotining dastlabki bosqichlaridan tortib, milliy-ma'naviy madaniyat rivojining turli davrlarida ham o'zining yuksak namunalari asosida nafaqat aholining ma'naviy-ruhiy madaniyatini, balki odob-axloq me'yorlarini tarbiyalashda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Ushbu san'at va badiiy ijodiyotning inson hayotida tutgan o'rni va ahamiyati haqida sharqning buyuk faylasufi, Abu Nasr Al-Farobiy "Bu fan (ya'ni musiqa) shu ma'noda foydaliki, kimning fe'l atvori muvozanatni yo'qotgan bo'lsa, tartibga keltiradi, kamol topmaganni kamolotga, muvozanatda bo'lganlarning muvozanatini saqlaydi". "To'g'ri va mahorat bilan o'rgatilgan musiqa insonda go'zallik va yaxshilik tuyg'ularini tarbiyalaydi, uni aqlan va axloqan kamolga yetkazadi". – deya ta'kidlab o'tgan. Aynan bugungi kunda o'quvchi yoshlarni tarbiyalashda xalq musiqa ijodiyotining o'rni beqiyosdir. Xalq musiqa ijodiyoti o'quvchilarni har tomonlama tarbiyalashda muhim didaktik manba sifatida xizmat qiladi.

O'zbek musiqa san'atida ko'p yillardan buyon avloddan-avlodga o'tib sayqal topib kelayotgan, o'zbek xalq musiqa ijodiyoti uzoq yillik tarixga ega. Ushbu xalq musiqasi, an'anaviy qo'shiqlar va o'ziga xos ijro uslublarini saqlab qolgan, milliy madaniyat va urf-odatlariga asoslangan san'at turidir. Xalq musiqa ijodiyoti o'z mazmuniga ko'ra uzoq o'tmishga ega xalqning etnik turmush taraqqiyoti, qadriyati an'anasi, urf-odati, marosimlarini o'zida ifoda etadi. Respublikamizda mustaqillik yillaridan boshlab o'zbek xalqining boy madaniyati, qadriyati, an'ana va urf-odatlari qayta tiklana boshladi. Shuning bilan bir qatorda jamiyatimizning barcha sohalarida bo'lgani kabi musiqa san'atida ham qator o'zgarishlar amalga oshirildi. Bu o'zgarishlarni, islohotlarni amalga oshirishdan asosiy maqsad yosh avlodni xalq musiqa ijodiyoti vositalari yordamida milliy-ma'naviy ruhda tarbiyalash, ularda xalqimizning tarixi, milliy madaniyati, o'zbek milliy an'ana va qadriyatlariga hurmat, vatanni sevish, milliy g'urur va iftixor his-tuyg'ularini tarkib toptirishdir. Buning uchun ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida yosh avlodni xalqimizning azaliy milliy urf-odatlariga, an'alariga, san'atiga ongli munosabatini tarkib toptirish talab etiladi. Shu maqsadda ta'limning mazmunini milliy asosda barpo etish, bunda milliy musiqiy meros imkoniyatlaridan foydalanish, milliy musiqa san'atini rivojlantirish eng asosiy vazifa qilib belgilandi. Bu haqida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-

noyabrdagi PQ-3391-son, “O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” [1] gi qarorida ustuvor o‘rin ajratilgan.

Shuningdek, bugungi kunda ma‘nan va jismonan sog‘lom, keng dunyoqarashga ega bo‘lgan ijodiy fikrlay oladigan o‘quvchi shaxsini kamol toptirishga a‘lohida e‘tibor qaratilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi PQ-112-son, “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonida a‘lohida ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Shuning bilan bir qatorda o‘quvchilarning estetik tafakkurini kengaytirishda uzoq o‘tmishga ega bo‘lgan xalq musiqa ijodiyoti a‘lohida ahamiyatga ega. O‘zbek xalq ijodiyotini o‘rganish hamda bu kabi musiqiy namunalar vositasida o‘quvchi yoshlarni har tomonlama kamol toptirish ijodiy pedagogik jarayondir.

Milliy ong, milliy g‘urur va tafakkur eng avvalo, milliy qadriyatlarimiz, tariximiz, xalqimizning o‘ziga xos madaniy va moddiy boyliklarini o‘rganish, unga mehr qo‘yish, asrab-avaylash, va rivojlantirish negizida shakllanadi. Shu bois ham xalqimizning milliy qadriyatlari tizimida muhim o‘rin tutuvchi xalq musiqa ijodining yoshlar ta‘lim-tarbiyasida tutgan o‘rni va ahamiyati beqiyosdir.

Xalq musiqa ijodiyoti o‘quvchi-yoshlarning estetik olamini kengaytirishda, ma‘naviyati hamda shaxsiy intellektual salohiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ma‘lumki, xalq musiqa ijodiyoti o‘zbek milliy mumtoz musiqalari ijro uslubi, ohangi hamda asar mazmunida xalqning boy urf-odatlarini, qadriyatlari hamda an‘analarini ifoda etishi bilan bir qatorda ona vatanni sevishtirish, uni ardoqlash, ezigulik, kattalarga hurmat-ehtiram, sog‘lom turmush tarzi, mehnatsevarlik, rahmdillik, mehr-oqibat, o‘z yeri, tarixi, madaniyati bilan mag‘rurlanish, mustahkam imon-e‘tiqod, halol mehnat, yaxshilik, sadoqatli bo‘lish kabi insoniy fazilatlarini o‘zida aks ettiradi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev o‘z nutqida: “Biz milliy ma‘naviyatni har tomonlama yuksaltirish masalasini o‘z oldimizga asosiy maqsad qilib qo‘yar ekanmiz, bugungi kunda ma‘naviyatimizni rivojlantirishda unga ta’sir o‘tkazadigan barcha omil va mezonlarni chuqur tahlil qilib, ularning bu borada qanday o‘rin tutishini yaxshi anglab olishimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi. Albatta har bir xalq yoki millatning ma‘naviyatini uning tarixi, o‘ziga xos urf-odat va an‘analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma‘naviy meros, madaniy boyliklar, ko‘hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi” - deya ta’kidlab o‘tgan.

Xalq donishmandligining ko‘zgusi bo‘lgan o‘zbek xalq musiqa merosi o‘zining tarbiyaviy ta’sirchanlik imkoniyatlari bilan alohida ajralib turadi. Xalqimiz o‘zining tarixiy taraqqiyotining har bir bosqichi, turli ijtimoiy, siyosiy,

madaniy ko‘rinishlari, urf-odat va marosimlariga atab juda ko‘plab qo‘shiqlar yaratgan. Bu esa o‘tmishdan an‘anaga aylanib kelgan xalq hayotining turli ko‘rinishlarini badiiy-estetik ifodasi sifatida avlod-dan-avlodga o‘tib, kishilar tarbiyasiga bevosita yoki bilvosita kuchli badiiy-emotsional ta’sir etib kelgan.

Xalq og‘zaki ijodiyoti bo‘lgan folklor namunalari-ni-ni-ni o‘ziga xos muhim jihatlaridan biri ilg‘or g‘oyaviyligidir. Xalq har bir sohada o‘z istaklarini tezroq amalga oshirishni orzu qilib yashaydi va shu orzularni amalga oshirish yo‘lida qilayotgan sa‘yi-harakatlarini turli tarzda ifodalashga intiladi. Shu tufayli u folklorga murojaat qiladi, o‘zining butun dardu hasratini to‘kib soladi. Shu tariqa xalq qo‘shiqlari vujudga keladi. Demak, xalq qo‘shiqlarini asosan xalq yaratadi. Shuning uchun ham xalq qo‘shiqlarining tili – xalqning jonli so‘zlashuv tili hisoblanadi va so‘zlarning turli shevalarda, turli dialektlarda talaffuz qilinishi, arxaik ifodalardan foydalanilishi tabiiy bir holdir. Xalq qo‘shiqlari har doim yuksak badiiyligi va taosirchanligi bilan ajralib turadi. Xalq qo‘shiqlari ramziy obrazlar, sifatlash mahorati, erkalatish, mubolag‘a va boshqa noanaviy formulalarning ko‘p ishlatilishi bilan xarakterlanadi. Xalq qo‘shiqlari anonim (grekcha noma’lum) kishilar tomonidan yaratilgan bo‘lib, u og‘izdan-og‘izga, avlod-dan-avlodga o‘tish jarayonida ommaviy ijrochilik tusini olgan. Xalq og‘zaki ijodiyoti namunasi sifatida xalq qo‘shiqlari manbai qadimqadimlarga daxldor bo‘lganligi uchun, ular nota yozuvlari, hatto adabiy yozuvning namunalari mavjud bo‘lmagan bir davrlardan boshlangan va ular ustoz-shogird an‘analari asosida bizgacha etib kelgan. Xalq qo‘shiqlarining abadiy saqlanib qolishida xalq xotirasi asosiy ahamiyat kasb etadi. Har bir narsa xalqning tajribasi, dididan o‘tgandan keyingina an‘anaga aylanadi. Xalq qo‘shiqlarining aksariyat qismi xalq an‘analari bilan bevosita bog‘liq holda yaratilgan. Har bir davr kishilari o‘z badiiy zavqi, ma’naviy estetik didi va tafakkuri bilan bu asriy an‘analarni boyitib borgan hamda unga o‘z hissasini qo‘shgan. Xalq ijodkorligi namunalari sifatida qadimdan aytib kelingan xalq qo‘shiqlari turli hududlarda turlicha kuylab kelingan. Bu xalq asarlarining xilma-xil nusxalarda takrorlanishiga olib kelgan, bu ko‘p variantlilikka xalq qo‘shiqlari rivojining o‘ziga xos taraqqiyot manbai deb qarash joizdir. Xalq qo‘shiqlarining ommaviyligi, an‘anaviyligi shu bilan izohlanadi. Xalq ohanglari va qo‘shiqlari bastakorlar ijodiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazib kelgan. Uzoq o‘tmishdan bastakorlar ijodida ustuvor o‘rin egallab kelgan VII asr musiqachilaridan biri Markaziy Osiyolik mashhur bastakor Borbad Marvaziy xalq qo‘shiqlari va kuylarini mukammal egallagan hamda u saroyda musiqachilar tarbiyasiga ham alohida e’tibor qaratgan [2].

Tarixdan ma'lum, ma'naviyatimizning asosiy bo'g'ini bo'lgan musiqiy madaniyatimiz, an'anaviy qo'shiqlarimiz, maqom ijrolari hamisha xalqimizning kundalik hayotida ma'naviy ozuqa sifatida e'tirof etib kelingan. Xalq og'ir kunlarida musiqadan najot izlagan, xursandchilik kunlarida ham qo'shiq va musiqa ularga hamroh bo'lgan. Zero, bugungi muborak mustaqillikka erishgan kunimizda, o'zligimizni anglab borayotgan bir davrda ulkan ma'naviyatimizning bir bo'lagi bo'lgan, ota-bobolarimizdan meros bo'lib kelgan milliy musiqiy madaniyatimizga suyanish, an'anaviy qo'shiqlarimizga murojaat qilish tabiiy bir holdir. Bularning barchasi barkamol avlod tarbiyasida, yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. An'anaviy musiqa va qo'shiqlarimiz odamlarni hamisha iymonga, mehr-oqibatga, odamiylikka chorlab kelgan. Bugungi kunda ham shu dolzarbligini yo'qotmagan holda mustaqillikka, mehnatkashlar ongini shakllantirish yo'lida, barkamol avlod tarbiyasida vosita sifatida asosiy omillardan bo'lib qolaveradi. Ashula, musiqa, raqs, folklor ijrochiligi san'ati milliy musiqa san'atining xalq hayoti va ijodi bilan chambarchas bog'liq holda paydo bo'lgan va rivojlanib kelgan qadimiy san'at turlaridan hisoblanadi. Ayniqsa, xalqimizning an'anaviy ruhdagi qo'shiqlari o'lmas meros bo'lib, barcha davrlardagidek bugun ham "labbay" deb javob bermoqda [3: 104]. Lekin shu bilan bir qatorda faqat tarixga sajda qilmay, bugungi kunning ruhiga mos tarzda qo'shiqlar yaratish esa milliy mafkuramizni rivojlantirishda bosh omillardan bo'lmish musiqiy sanhat bilan shug'ullanayotgan barcha mutaxassis va san'atkorlarga muhim vazifa qilib qo'yilishi tabiiydir. Mamlakatimiz tamomila yangi jamiyat, yangi turmush va yangi hayotni boshlab yubordi. Odamlarimiz qalbi, tafakkuri va tasavvurida o'zgarishlar paydo bo'ldi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlariday, ma'naviyat masalasi millat tarixi, axloqiy va diniy qadriyatlar, madaniy meros, an'ana va rasm- rusumlar, milliy mafkura, vatanparvarlik va insonparvarlik, milliy o'zlikni anglash singari juda ko'p omillarni o'z ichiga oladi va pirovardida, inson shaxsini belgilashda asosiy mezon vazifasini bajaradi.

Xalq ijodining yuksak namunalari, folklor ijrochiligi, kuy tuzilishi, mazmunan rivojlangan cholg'u va ashula asarlari, dostonlar ijrochiligi hamda murakkab ijrochilik turkumi atalmish maqom musiqasini o'z ichiga oladi. Musiqiy ohangda mavjud har qanday harakat, ya'ni jilo, joziba, g'oya, mazmun qochirim va bezaklar tinglash orqali idrok etiladi hamda o'zlashtiriladi. Ularni ravnaqi yo'lida qilingan har qanday harakat ijodiyot mahsuli demakdir. Shu bois, musiqa azal-azaldan og'zaki tarzda avloddan-avlodga o'tib kelgan. Buni bizda ustoz-shogird an'anasi deb ardoqlashadi. Sharq xalqlari, shu jumladan o'zbek xalqi qadimiy va

boy musiqa an'analariga egadir. Asrlar mobaynida bu noyob musiqa asarlari og'zaki an'anada, ustozshogird tomonidan bizning davrimizgacha yetib kelgan.

Qadimdan hozirgi kungacha mahalliy san'at ahli an'anaviy ijodiyotining shakl va navlarini tobora takomillashtirib, uning badiiy barkamol namunalarini avaylab-asrab, yangidan-yangi ijodkorlik sayi-harakatlari ila milliy-ma'naviy boyliklarni doimo ko'paytira borganlar. San'atkorlar xalqning orzu va umidlarini, quvonch va qayg'ularini jamiki insoniy qalb extiyojlarini yuksak musiqiy idrok bilan tasvirlab borib, kishilarga hamisha ruhiy-ma'naviy ozuqa berishgan.

XIX asr oxirlariga kelib o'zbek musiqiy madaniyatida o'zgarishlar davri boshlandi. Bu albatta, Turkiston o'lkasini Rossiya tomonidan istilo qilinishi bilan bog'liqdir. Bu borada ikki tomonlama qarash bilan o'rganmoq zarur bo'ladi. Chunki bazi bir hollarda milliy musiqa madaniyatimizga salbiy ta'sirini kuzatsak, ikkinchi tomondan, o'ziga xos rivojlanish davri bo'lganligini ham ehtirol etish zarur bo'ladi. Chunki nota yozuvining kirib kelishi, o'lkamizda milliy musiqa san'atimizni ilmiy ravishda o'rganish, og'zaki an'anadagi ijro uslublari, an'anaviy xonandalik yo'nalishining rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi [4; 96].

Musiqiy madaniyat o'zining serqirraligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, o'zining chuqur ildizlari qadimgi davrlarga yetib boradigan o'zbek xalqining boy musiqa merosi hozirgi kundalik hayotimizda ham hamnafas bo'lib xalqimizning qalbidan chuqur joy egallab kelmoqda. Bu xalq ijodining yuksak namunalari, folklor ijrochiligi, kuy tuzilishi, mazmunan rivojlangan cholg'u va ashula asarlari, dostonlar ijrochiligi hamda murakkab ijrochilik turkumi atalmish maqom musiqasini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, xalq musiqiy madaniyatida o'zlarining barcha davrlarda sezilarli hissalarini qo'shib kelayotgan xalq bastakorlarining ijodi ham salmoqli o'rin tutadi. Xalq musiqa ijodi turli marosim, urf-odat, turli hodisa va tadbirlar bilan bevosita bog'langan, fol'klor, xalq ijodi, bolalar qo'shiqlari, mumtoz musiqalar, laparlar, aytimlar, maqomlar, klassik a'shulalar kabilarni qamrab oladi.

Urf-odat, marosim va bayramlar tarkibiga mehmondo'stlik an'analari, axloq-odob bilan bog'liq urf-odatlar, farzand tarbiyasi bilan bog'liq marosimlar, beshik to'yi, ism qo'yish marosimi, sunnat to'yi, sovcilikka borish, kelin salom, milliy va mahalliy miqyosda o'tkaziladigan sayllar, hasharlar, tomoshalar, bayramlar va boshqalarni kiritish mumkin. O'zbek oilalarida yosh oilalarni tarbiyalash uchun o'ziga xos ma'naviy "zina" sifatida xizmat etadigan, chaqaloq tug'ilgandan, to ulg'ayib, yangi oila qurgungacha bo'lgan hayotiy muhim voqyealarni qayd qiladigan marosimlar tizimi ("Chaqaloq dunyoga kelishi", "Ism berish", "Chaqaloq

chilla”, “Beshik to’y”, “Soch to’y”, “Tish to’y”, Birinchi qadam”, “Sunnat to’y”, “Muchal yosh”, “Nikoh to’y” kabilar) vujudga kelgan [8].

Beshik to’yi - o‘zbeklar oilasida to‘ng‘ich farzand tug‘ilishi sharafiga o‘tkaziladigan tantanali marosim hisoblanadi. Bu udum O‘zbekiston viloyatlarida o‘ziga xos xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi. Beshik bilan bog‘liq turli xil urf-odatlar bor. Masalan, beshikni hyech qachon ikki kishi ikki tomonidan ko‘tarmaydi, uni faqat bir kishi ko‘tarishi lozim. Beshik doimo toza joyda saqlanadi. Undan foydalanilmaganda ham asbob-anjomlari bilan yig‘ib toza joyga qo‘yib qo‘yiladi. Oilada tug‘ilgan keyingi farzandlarning hammasi ana shu beshikdan foydalanadi, ya’ni oilada tug‘ilgan keyingi farzandga boshqa yangi beshik olinmaydi. Chaqaloqning yaqinlari davrasida beshikka solish xalq tilida “beshik to‘yi” marosimi ham deyiladi. Bu udum O‘zbekistonning turli hududlarda turlicha tartibda o‘tkaziladi. Odatda beshik to‘ng‘ich farzandga qizning ota-onasi tomonidan beriladi. Marosim oilaviy marosim shaklida o‘tkaziladi. Unda kelin va kuyov tomonning eng yaqin qarindoshlari qatnashadi va yoshi ulug‘ momolar yosh onaga bolani beshikka solish (belash) tartibini o‘rgatishadi.

Boychechak marosimi – turkiy xalqlarda ko‘klam kelishi bilan bahorning ilk guli – boychechak chiqqanligi munosabati bilan o‘tkaziladi. Bahor bilan bog‘liq “Lola”, “Gul” kabi ko‘plab sayillarning ibtidosida “Boychechak” marosimi turadi. Boychechak sayli qish qahratonidan omon chiqqan xalqning shukronalik bayrami hamdir. Qadimda bu marosim qish va ko‘klamning kurashini ifodalagan. Bunday marosim va bayramlar tog‘ bag‘rida, qir-adirlarda, bog‘larda o‘tkazilgan. Marosim yerli xalq hayotida muhim sanalgan va unga maxsus tayyorgarlik ko‘rilgan. Boychechak sayli dastlab kattalar va bolalar ishtirokida o‘tkazilgan. Hozirgi kunda faqat bolalar tomonidan nishonlanadi. Bolalar guruh-guruh bo‘lib qishloq yaqinidagi qir-adirlardan boychechak terib kelishadi. Bunda guruhlar o‘rtasida raqobat ham kechishi mumkin. Qaysi guruh qishloqqa birinchi bo‘lib boychechak keltirsa eng ko‘p sovg‘a-salomlar ularga beriladi. O‘quvchilarni mana shunday didaktik mazmunga ega bo‘lgan, o‘zbek milliy qadriyatlari, an‘analarini o‘zida aks ettirgan bilimlar bilan tanishtirish natijasida ularda xalq ijodiyotiga bo‘lgan hurmat hissini tarkib toptirishga hamda insoniy fazilatlarning tarkib topishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda xalq musiqa ijodiyotini pedagogik asosda o‘rgatish o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy barkamolligini ta’minlashda, ularning estetik dunyoqarashini rivojlantirishda va milliy qadriyatlarga hurmat hissini tarkib toptirishda muhim o‘rin tutadi. Ta’lim-tarbiya jarayonida milliy musiqiy meros namunalari hisoblanagan xalq musiqa ijodidan samarali foydalanish, bu kabi

namunalarni zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg'unlashtirgan holda o'quvchi-yoshlarning ma'naviy ongini qurollantirib borish a'lohida ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi PQ-3391-son, "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori
2. Mirzayev T., Safarov O., Orayeva D. O'zbek xalq ijodi xrestomatiyasi. – Toshkent: 2008.
3. Ibrohimov O. O'zbek xalq musiqasi. – Toshkent: Ibn Sino, 1994. – I jild.– 104 b.
4. Ibrohimov O. Maqom va makon. – Toshkent: Movarounnahr, 1996. – 96 b.
5. Shomurodov J.O. O'quvchilarning badiiy-estetik mazmundagi o'quv materiallarini kognitiv qabul qilish layoqatini rivojlantirish mexanizmlari ped. fan. falsafa dok. (PhD) diss. - T.: 2023. - 156 b.
6. J.O.Shomurodov "The issues of media coverage and interpretation of the songs "yo ramadan" journal of northeastern university *web of scientist*: ISSN: 1005-3026 <https://dbdxxb.cn/> Original Research Paper
7. Jumaniyazov, O. (2024). O'quvchilarga xalq cholg'ularini o'rgatishda sharq allomalari musiqiy risolalarining ahamiyati. Вестник музыки и искусства, 1(3), 125–130. извлечено от <https://science.uzdknf.uz/index.php/science/article/view/158>.
8. Yo'ldosheva S. Xalq urf-odatları va an'analari. – Toshkent: Ijod dunyosi. 2003.

MAZMUNÍ

MUZÍKATANÍW

1	Султанова Е. ФОРТЕПИАННОЕ ТРИО ФРАНСИСА ПУЛЕНКА В КОНТЕКСТЕ ФРАНЦУЗСКОЙ КЛАССИЧЕСКОЙ МУЗЫКИ XX ВЕКА	3
2	Миркасымова Э.З. ИСПОЛНИТЕЛЬСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ КАК ВАЖНЕЙШИЙ ЭТАП ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МУЗЫКАНТА	9
3	Мирсолихова Х.М. МУСИҚИЙ АСАР УСТИДА ИШЛАШ ЖАРАЁНИ ҲАҚИДА	16
4	Тожибоев С. ИСЛОМ ДИНИ БИЛАН БОҒЛИҚ МАРОСИМ ВА БАЙРАМЛАРДАҒИ МУСИҚИЙ АНЪАНАЛАР	21
5	Abatbaeva R.A. KOMPOZITORLAR IJODIDA BALLADA JANRINING SHAKLLANISHI VA BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI	34

KÓRKEM ÓNER

6	Allanbaev R.O. “SUYMAGANGA SUYKALMA” MUSIQALI DRAMASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	41
7	Аббарова М. ЎЗБЕКИСТОН ВА ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН АЁЛ КОМПОЗИТОРЛАРИНИНГ ТАҒАҚҚУРИ МОҲИЯТИ	52
8	Aytmuratov B.K. AKTYOR INDIVIDUALLIGINI SHAKLLANTIRISHDA ROL YARATISH USLUBIYATINING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI	59
9	Azimov K. DIRIJYORLIK TEXNIKASINING NAZARIY MASALALARI	68
10	Eminov N. “ALPOMISH” MUSIQALI DRAMASIGA AYRIM CHIZGILAR	73
11	Gulmanov I. DÁSTÚRIY HÁM ZAMANAGÓY MUZÍKADA DÁP ÁSBABÍNÍN RAWAJLANÍW BASQÍSHLARÍ	80
12	Jaqsımuratova B. VOKAL ATQARIWSHİLÍĞİNÍN TARIYXIY EVOLYUCIYASÍ	86
13	Karimova N. FESTIVAL TUSHUNCHASI VA ULARNIG ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	92
14	Kazakbayeva M. ARIYALAR USTIDA ISHLASH JARAYONIDA JO‘RNAVOZNING AHAMIYATI	98
15	Kutekeeva R. QORAQALPOG‘ISTON OPERA SAN’ATIDA MILLIY OBRAZLAR TALQINI	104

16	Matjanova M. ATQARIWSHILIQ MADENIYATIDA KONCERTMEYSTERDIN TIYKARGI WAZIYPALARI	110
17	Sharipov N. ZAMONAVIY FANDA AYOL OLIMALARNING O'RNI	117
18	Osman Kopadze. THE SOFT POWER IMPACT OF TURKISH TELEVISION SERIES ON UZBEK SOCIETY	122
19	Paxratdinova L. SKRIPKANING KELIB CHIQISHI VA IJROCHILIK AN'ANALARI	130
20	Shukurov A. TEATR SAN'ATINI RIVOJLANTIRISHDA TARIXIY VA ZAMONAVIY YONDASHUV	136
21	Tursunov E. AN'ANAVIY YO'NALISHDAGI XONANDALIK ASARLARI BOSHQA MILLAT VAKILLARI IJROCHILIGIDA	147
22	Измаилов А.М. ФОРМИРОВАНИЕ ОРКЕСТРОВОЙ ФУНКЦИИ ЗВУКОВЫСОТНЫХ УДАРНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ В XVI–XVII ВЕКАХ	153
23	Давыдова Т. СТИЛЕВЫЕ ОСОБЕННОСТИ СИМФОНИЧЕСКИХ ОПУСОВ ТУЛКУНА КУРБАНОВА	165
24	Миркасымова Э.З. ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ И СТИЛЕВЫЕ ПРИНЦИПЫ ФОРТЕПИАННЫХ ЦИКЛОВ Д.САЙДАМИНОВОЙ.	170
25	Charshemov J.A. QARAQALPAQ KOMPOZITORLARININ XOR USHIN JAZILGAN SHIGARMALARI	177

MUZIKA PEDAGOGIKASI

26	Djumaniyazov U.M. XALQ MUSIQA IJODIYOTINI O'RGANISHGA PEDAGOGIK YONDASHUV	187
27	Yusupaliyeva D. YOSHLARNING MA'NAVIY TARBIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA MADANIYAT VA SAN'ATNING O'RNI VA AHAMIYATI	196
28	Muratbaev A. ORFF METODI TIYKARIDA MUZIKA SABAQLARIDA SAZ ASBAPLARDAN PAYDALANIV	204
29	Мелькумова Э.И. ФИЛОСОФСКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВАНИЯ НАУЧНОГО ПОЗНАНИЯ: СТРУКТУРА, ЛОГИКА И ТРАНСФОРМАЦИЯ В КОНТЕКСТЕ СОВРЕМЕННОСТИ	210
30	Абдуллаева А. РАБОТА НАД ФОРТЕПИАННЫМИ ПЬЕСАМИ Р. ГЛИЭРА В КЛАССЕ ОБЩЕГО ФОРТЕПИАНО	217

31	Saidumarov I. ESTRADA XONANDALIGI SAN'ATI HAMDA VOKALDAN DARS BERISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARINING O'RNI VA AHAMIYATI	223
----	--	-----

JÁMIYETLIK-GUMANITAR PÁNLER

32	Бердиниязова Н.К. МЕҲНАТ ЖАМОАСИДА КАСАБА УЮШМАСИНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ	228
33	Пердебаева К.Р. БАСПАСӨЗ ДИЗАЙНЫ ҮСТИНДЕ ИСЛЕЎ (Газетаның арнаўлы санлары анализи мысалында)	234

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER
XABARSHÍSÍ
Ilimiy-metodikalıq jurnal

